

MINTAQA IQTISODIYOTIDA SANOAT TARMOQLARINING MAMLAKATIMIZDA TUTGAN O‘RNI VA HOZIRDA OLIB BORILADIGAN ISLOHATLAR

Qarshi davlat universiteti
Iqtisodiyot fakulteti dekani
i.f.d.professor Nabiyev G‘ulom Abdisalomovich
gulomjonnabiev@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mintaqa sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholash masalalari nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Iqtisodiy salohiyatni tahlil qilish jarayoni sanoat korxonalarining ichki va tashqi hisobotlari asosida ko‘rsatkichlarni qayta ishlash, baholash hamda sharhlash orqali ularning imkoniyatlari va rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashga xizmat qilishi asoslab berilgan. Shu bilan birga, iqtisodiy salohiyatni baholashda analitik qo‘llab-quvvatlash tizimining o‘rni, qaror qabul qilish jarayonida axborot va tahliliy usullarning o‘zaro bog‘liqligi, boshqaruvning samarali tashkil etilishidagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqotda sanoat korxonalarining kompleks iqtisodiy salohiyatini baholash uchun konseptual model va mexanizm ishlab chiqilgan bo‘lib, unda mulk ob‘ekti, maqsadli ko‘rsatkichlar tizimi (EV, SV, EVA, NP, FCFE, E, A, N) hamda funksional komponentlar salohiyatning asosiy elementlari sifatida belgilangan. Baholash jarayonida tashqi va ichki foydalanuvchilar manfaatlari, ularning maqsadlari va ehtiyojlarini hisobga olish zarurligi ta‘kidlangan. Maqolada shuningdek, iqtisodiy salohiyatni baholashning daromadli, xarajatli va qiyoslovchi yondashuvlari, ularning afzalliklari va cheklovlari tahlil qilinib, natijada iqtisodiy salohiyatni kompleks baholash ko‘p komponentli tizim sifatida shakllantirish zarurligi asoslangan.*

Kalit so‘zlari. *mintaqa sanoat korxonalari, iqtisodiy salohiyat, analitik qo‘llab-quvvatlash tizimi, baholash mexanizmi, konseptual model, investitsion jozibadorlik, innovatsion rivojlanish*

МЕСТО ПРОМЫШЛЕННЫХ СЕКТОРОВ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ НАШЕЙ СТРАНЫ И ТЕКУЩИЕ РЕФОРМЫ

Университет штата Карши
Декан экономического факультета
Профессор Набиев Гулом Абдисаломович
gulomjonnabiev@mail.ru

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы оценки экономического потенциала промышленных предприятий региона с теоретической и практической точки зрения. Утверждается, что процесс анализа экономического потенциала служит для определения возможностей и направлений развития промышленных предприятий путем обработки, оценки и интерпретации показателей на основе внутренней и внешней отчетности. При этом показаны роль системы аналитического обеспечения в оценке

экономического потенциала, взаимосвязь информационно-аналитических методов в процессе принятия решений и их значение в эффективной организации управления. В ходе исследования разработаны концептуальная модель и механизм оценки комплексного экономического потенциала промышленных предприятий, в котором в качестве основных элементов потенциала выделены имущественный объект, система целевых показателей (EV, SV, EVA, NP, FCFF, E, A, N) и функциональные компоненты. Подчеркивается необходимость учета интересов внешних и внутренних пользователей, их целей и потребностей в процессе оценки. В статье также анализируются доходный, затратный и сравнительный подходы к оценке экономического потенциала, их преимущества и ограничения, делается вывод о необходимости формирования комплексной оценки экономического потенциала как многокомпонентной системы.

Ключевые слова: промышленные предприятия региона, экономический потенциал, система аналитического обеспечения, механизм оценки, концептуальная модель, инвестиционная привлекательность, инновационное развитие.

THE PLACE OF INDUSTRIAL SECTORS IN THE REGIONAL ECONOMY IN OUR COUNTRY AND CURRENT REFORMS

Karshi State University

Dean of the Faculty of Economics

Professor Nabiyev Gulom Abdisalomovich

gulomjonnabiev@mail.ru

Abstract. This article covers the issues of assessing the economic potential of industrial enterprises in the region from a theoretical and practical perspective. It is argued that the process of analyzing economic potential serves to determine the capabilities and development directions of industrial enterprises by processing, evaluating and interpreting indicators based on internal and external reports. At the same time, the role of the analytical support system in assessing economic potential, the interrelationship of information and analytical methods in the decision-making process, and their importance in the effective organization of management are shown. The study developed a conceptual model and mechanism for assessing the complex economic potential of industrial enterprises, in which the property object, the system of target indicators (EV, SV, EVA, NP, FCFF, E, A, N) and functional components are identified as the main elements of potential. The need to take into account the interests of external and internal users, their goals and needs in the assessment process is emphasized. The article also analyzes the profitable, cost-effective and comparative approaches to assessing economic potential, their advantages and limitations, and concludes that it is necessary to form a comprehensive assessment of economic potential as a multi-component system.

Keywords: industrial enterprises of the region, economic potential, analytical support system, assessment mechanism, conceptual model, investment attractiveness, innovative development

Kirish. Mintaqa sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholash uchun analitik qo'llab-quvvatlash tizimi ishlab chiqiladi. Iqtisodiy tahlil mintaqa sanoat korxonalarining kontur boshqaruviga imkon bermaydi, boshqariladigan va nazorat qilinadigan tizimlar orasidagi qayta aloqa rolini o'ynaydi, axborot yig'ish va qaror qabul qilish o'rtasida oraliq joyni egallab turib, qabul qilingan qarorlarga tayyorgarlikni ta'minlaydi, chunki analitik usullar o'z-o'zidan iqtisodiy qaror qabul qilish jarayoniga xosdir. Iqtisodiy tahlil tizimida joylashishni aniqlash maqsadida izoh berib o'tiladi va mintaqa sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini tahlil qilishning obyekti va mazmuni aniqlanadi. Mintaqa sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish - mintaqa sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini tushunish, tushuntirish, baholash, asoslash, xulosa va tavsiyalar berish uchun foydalaniladigan muayyan modellar va usullardan foydalanishni o'z ichiga olgan tizimli tahliliy vositalar to'plamidir.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Mintaqa sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholash masalasi iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, turli yondashuvlar shakllangan. Birinchi guruh tadqiqotlar "resursli yondashuv" asosida iqtisodiy salohiyatni korxonaning moddiy, mehnat va nomoddiy resurslari yig'indisi sifatida talqin qiladi. Masalan, M.Q. Pardayev, B.A. Hasanov, J.I. Isroilov va A.N. Xoliqulovlarining [1] ishlari korxonalar iqtisodiy salohiyatini moddiy-texnik baza, mehnat resurslari va intellektual kapital bilan bog'lab baholaydi. Ikkinchi guruh adabiyotlarda "natijaviy yondashuv" ustuvor bo'lib, iqtisodiy salohiyatning asosi sifatida korxonaning ishlab chiqarish samaradorligi, moliyaviy natijalari va bozor ulushi ko'riladi. Y. Brexova va A. Kurbanova tomonidan ta'kidlanganidek [2], iqtisodiy salohiyat nafaqat mavjud resurslar, balki ularni samarali boshqarish natijasida erishiladigan yakuniy iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan o'lchanadi.


Xalqaro adabiyotlarda ham bu masalaga turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan, M. Porterning "Competitive Advantage" [3] asarida iqtisodiy salohiyat korxonaning raqobat ustunliklari va qiymat zanjiri tahlili orqali baholanadi. Trigeorgis (1996) tomonidan ishlab chiqilgan "Real Options" [4] konsepsiyasi esa iqtisodiy salohiyatni investitsion qarorlarning moslashuvchanligi va risklarni boshqarish imkoniyatlari orqali ko'rsatadi. Shuningdek, OECD va UNIDO [5] kabi xalqaro tashkilotlar sanoat korxonalarini baholashda innovatsion faoliyat, raqamlashtirish darajasi va resurslardan samarali foydalanish mezonlariga alohida e'tibor qaratadi.

O'zbekistonlik olimlar orasida ham bu yo'nalishda qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, S.S. Safarov [6] sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini tahlil qilishda integral ko'rsatkichlardan foydalanish zarurligini asoslagan. Shodiev A.A. esa mintaqaviy sanoat salohiyatini baholashda hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlar

va korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini hisobga olishni taklif etadi[7]. Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mintaqa sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini baholashda yagona yondashuv mavjud emas. Har bir ilmiy maktab resursli, natijaviy, innovatsion yoki tizimli yondashuvni ilgari suradi. Shu sababli, zamonaviy sharoitlarda kompleks yondashuv – ya'ni resurslar, natijalar va strategik imkoniyatlarni birgalikda baholash – dolzarb hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Mintaqa sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini statistik baholash bo'yicha taklif etilgan uslubiy yondashuvni amalda bajarish uchun baholashning maqsad va vazifalariga va foydalanuvchilarning manfaatlariga qarab, iqtisodiy salohiyatning qidirilayotgan qiymatini aniqlashning turli yondashuvlarini hisobga olgan holda, bunday baholashning ko'pkomponentli tizimi ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, turli xil baholash yondashuvlari qabul qilingan vaqtga bog'liq ravishda o'zgaruvchan va turli xil qabul qilingan baholash uslublarida aks ettiradigan elementlar majmuasini tanlashda, uning yo'nalishini, murakkab iqtisodiy salohiyatni hisobga olgan holda namoyon bo'ladi.

Mintaqa sanoat korxonalarining murakkab iqtisodiy salohiyatini baholash uchun konseptual model ishlab chiqiladi (1-rasm).



1-rasm. Mintaqa sanoat korxonalarining kompleks iqtisodiy salohiyatini baholash uchun konseptual model⁸

Baholash natijalarining tashqi va ichki foydalanuvchilarining manfaatlarini muayyan maqsadlar va vazifalarni aniqlaydi va mintaqa sanoat korxonalarining

muayyan pozitsiyasidan murakkab iqtisodiy salohiyatini aks ettiruvchi elementlar majmuini tanlash zarurligini belgilaydi:

- ❖ mulk obe'kti;
- ❖ mintaqa sanoat korxonalar murakkab iqtisodiy salohiyatining vektor maydoni sifatida ishlatiladigan maqsadli ko'rsatkichlar tizimi;
- ❖ funksional komponentlar – bir biriga bog'liq salohiyatlar.

Mintaqa sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatidan foydalanish darajasi mavjud sharoitlarda dastlabki yoki rejalashtirilgan darajalarda erishish mumkin bo'lgan hozirgi darajani taqqoslash yo'li bilan baholanadi. Mintaqa sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish zarurati mavjud darajani maqsad bilan taqqoslash yo'li bilan aniqlash mumkin (prognoz, mintaqa sanoat korxonalar erishmoqchi bo'lgan qiymat).

Shakllantirilgan takliflardan foydalanish mintaqa sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholashning haqiqiylikini oshiradi.

Ichki va tashqi foydalanuvchilarning manfaatlarini qondirish orqali mintaqa sanoat korxonalarining kompleks iqtisodiy salohiyatini baholash algoritmlarining blok sxemalari ishlab chiqiladi va jarayonlar asoslanadi.

Algoritmlarning oqim sxemalarini ishlab chiqamiz va jarayonlarni asoslab beramiz:

1) tashqi foydalanuvchilarning manfaatlarini qondirishdan kelib chiqib, mintaqa sanoat korxonalarining kompleks iqtisodiy salohiyatini baholash uchun biznesning qiymatini baholash usulini tanlash;

2) ichki foydalanuvchilarning manfaatlarini qondirishdan kelib chiqib, mintaqa sanoat korxonalarining kompleks iqtisodiy salohiyatini baholash. Bunda:

a) mintaqa sanoat korxonalarining kompleks iqtisodiy salohiyatining vektor maydoni sifatida qabul qilingan maqsadli ko'rsatkichlar tizimi asosida belgilangan maqsadlarga erishish qobiliyati;

b) ishlab chiqarish jarayonining ichki holatini aks ettiruvchi qobiliyat sifatida - uni aniqlashning lokal salohiyati.


investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida biznesni baholash bilan mintaqa sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholash imkoniyati(mintaqa sanoat korxonalarining jozibadorligini aniqlash).

Umuman olganda, mintaqa sanoat korxonalar qiymatini aniqlashning standart usullarini oqilona qo'llash zaruriyatini nazarda tutib, mintaqa sanoat korxonalar holati, uning strategik imkoniyatlari va bozor pozitsiyalarini inobatga olgan holda, biznesning qiymati va uni aniqlash metodikasi iqtisodiy salohiyatning ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'lib, tadbirkorlik subyekting maqsad va vazifalariga muvofiq bo'lishi kerak.

Mintaqa sanoat korxonalarining kompleks iqtisodiy salohiyatini baholash mexanizmi maqsadli ko'rsatkichlar tizimi iqtisodiy salohiyatning vektor maydoni sifatida foydalanilganda mintaqa sanoat korxonalarining o'z maqsadlariga erishish qobiliyatini baholaydigan ichki iste'molchi pozitsiyasidan taqdim etiladi (2-rasm).

Tahlillarimizga ko'ra, biznesni baholash uch yondashuvning pozitsiyasi bilan amalga oshiriladi: daromadli, xarajatli va qiyoslovchi. Zamonaviy biznesni baholashning turli usullarining mavjudligiga qaramasdan, ulardan hech biri universal

emas. Barcha yondashuvlar va usullarning afzalliklari, cheklovlari mavjud bo'lib, ularning har biri mintaqa sanoat korxonalarining qiymatini o'zida aks ettiradi. Qiymatni baholash turi, baholashning maqsadi va vazifasi, dastlabki ma'lumotlarning kerakli va yetarli miqdorda mavjudligi, albatta, yondashuv va baholash usulini tanlashning aniq mezonlari hisoblanadi.



2-rasm. Mintaqa sanoat korxonalarining kompleks iqtisodiy salohiyatini baholash mexanizmi⁹

Ushbu tadqiqotda korporativ kompleks iqtisodiy salohiyatning bozor qiymatini hisobga olgan holda vektor maydoni sifatida qabul qilingan maqsadli ko'rsatkichlar tizimi taklif qilindi (EV - Enterprise Value); sotish hajmi (SV - Sales volume); iqtisodiy qo'shimcha qiymat (EVA - Economic Value Added); sof foyda (NP - Net Operating Profit After Taxes); pul oqimi (FCFF (CF) - Free Cash Flow to Firm); o'z sarmoyasi (E - Equity); kompaniya aktivlari (A - Assets); xodimlar soni (N - Number of the personnel).

Mintaqa sanoat korxonalarining kompleks iqtisodiy salohiyatga tashqi foydalanuvchilarning manfaatlarini qondirish nuqtai nazaridan baho berish tadbirkorlikni baholash uchun asos bo'lishi mumkin. Mintaqa sanoat korxonalarining kompleks iqtisodiy salohiyati, tashqi foydalanuvchilarning manfaatlarini nuqtai

nazaridan t vaqtida (KKIS_{ivnpt}) baholashda t (St) davridagi biznes qiymatining funksiyasi va kelajakda(yet) muayyan vaqt mobaynida biznes qiymatining o'zgarishi haqidagi taxminlarni aks ettiruvchi koeffitsiyent hisoblanadi:

$$KKIS_{ivnpt} = f(St, et) \quad (1.1)$$

Tadbirkorlikni baholash metodologiyasi soddaligiga, amal qilish muddatiga, davriylikka va axborot olish talablariga javob berishi kerak. Biznesni baholashni muntazam ravishda qo'llash qulay bo'lishi kerak va natija aniq va maksimal darajada iqtisodiy salohiyatni baholashvazifalari va maqsadlariga mos kelishi kerak.

Mintaqa sanoat korxonalar murakkab iqtisodiy salohiyatini baholash uchun ichki foydalanuvchi (rahbarlar) lardan kelib chiqib belgilangan maqsadlarga erishish maqsadida algoritm mexanizmini va blok diagrammasini ishlab chiqamiz (1.9-rasm).

Funksional komponentlarni (alohida salohiyatlarni) aks ettirishdan kelib chiqib, iqtisodiy salohiyatni baholash ichki foydalanuvchilarning boshqaruv qarorlarini, biznesning hozirgi holatini, mintaqa sanoat korxonalarining ayrim jihatlarining iqtisodiy samaradorligini asoslash va ayrim turdagi resurslardan foydalanishni aniqlash uchun foydalidir. Mintaqa sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini tahlil qilishning alohida metodologik pozitsiyalari kengaytirilib, iqtisodiy tahlil tizimida uning joylashuvini belgilab beradi; ko'rsatkichlarni hisoblash uchun dastlabki statistik ma'lumotlarni qidirish va to'plashni osonlashtirish maqsadida axborotni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishning zarurligi va tamoyillari asoslanadi.

Tahlil obyekti mintaqa sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyati bo'lib, uni turli xil nuqtai nazarlardan aks etadigan elementlar to'plamini o'z ichiga olgan kompleks tizimdir. Mintaqa sanoat korxonalar iqtisodiy salohiyatini tahlil qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri mintaqa sanoat korxonalarining iqtisodiy imkoniyatlarini ichki bozor imkoniyatlarini va o'sish manbalarini aniqlashga, belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga, bozor o'zini o'zi boshqarishni ta'minlaydigan, iqtisodiy barqaror boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun obyektiv axborot asoslarini yaratishga qaratilgan iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Mintaqa sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish jarayoni ichki va tashqi hisobotlardagi ko'rsatkichlarni qayta ishlash, baholash va sharhlash orqali ularning imkoniyatlari hamda rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bunday tahlil sanoat korxonalarining kuchli va zaif tomonlarini ochib beradi, ichki bozor imkoniyatlari va o'sish manbalarini ko'rsatib beradi hamda obyektiv axborot asosida barqaror boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, iqtisodiy salohiyatni to'liq ochib berish uchun faqat tizimlashtirilgan ko'rsatkichlar emas, balki birlamchi axborotning yetarli va ishonchli shakllantirilishi ham zarurdir. Demak, iqtisodiy tahlil samaradorligi ko'p jihatdan axborotni qo'llab-quvvatlash tizimining mukammalligi bilan belgilanadi.

Taklif sifatida, avvalo iqtisodiy salohiyatni baholash uchun keng qamrovli va muntazam yangilanib turadigan birlamchi axborot bazasini shakllantirish lozim. Shu bilan birga, mahalliy va xalqaro tajribani hisobga olgan holda sanoat korxonalarining salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar ro'yxatini aniqlashtirish va standartlashtirish zarur. Tahlil jarayonini samarali tashkil etish uchun dasturiy vositalar, elektron hisobotlar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini keng joriy etish maqsadga

muvofiqdir. Shuningdek, analitik ma'lumotlarni turli foydalanuvchilar — tadqiqotchilar, investorlar va davlat organlari uchun qulay shaklda taqdim etish orqali tahlil natijalarining amaliy qiymatini oshirish mumkin. Eng asosiysi, olingan natijalar asosida sanoat korxonalarining investitsion jozibadorligini kuchaytirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan amaliy choralarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Pardayev, M. Q., Hasanov, B. A., Isroilov, J. I., & Xoliqulov, A. N. (2019). *Korxonalar iqtisodiy salohiyatini baholashning nazariy asoslari*. Toshkent: Iqtisodiyot.
2. Brexova, Y., & Kurbanova, A. (2020). Iqtisodiy salohiyatni resursli va natijaviy yondashuv asosida baholash. *O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali*, 4(2), 45–56.
3. Safarov, S. S. (2018). Mintaqaviy sanoat korxonalarining barqarorligini ta'minlashda iqtisodiy salohiyatni baholash. *Ilmiy axborotlar to'plami*, 12(3), 77–85.
4. Shodiev, A. A. (2021). Hududiy sanoat salohiyatini kompleks tahlil qilish metodlari. *Iqtisodiyot va innovatsiya*, 5(1), 90–101.
5. Porter, M. E. (1985). *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. New York: Free Press.
6. Trigeorgis, L. (1996). *Real Options: Managerial Flexibility and Strategy in Resource Allocation*. Cambridge: MIT Press.
7. OECD. (2019). *Industrial Policy for the Sustainable Growth*. Paris: OECD Publishing.
8. UNIDO. (2020). *Industrial Development Report: Industrialization in the Digital Age*. Vienna: United Nations Industrial Development Organization.
9. World Economic Forum (WEF). (2022). *Travel and Tourism Development Index 2022*. Geneva: WEF.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni — “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”.
11. Hasanov, B. A. (2016). *Korxonalar resurslaridan samarali foydalanish nazariyalari*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
12. Isroilov, J. I. (2017). *Korxonalar iqtisodiy salohiyatini shakllantirishning ilmiy asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
13. Xoliqulov, A. N. (2018). *Korxonalar iqtisodiy salohiyatini boshqarish mexanizmlari*. Qarshi: QDPI nashriyoti.
14. Brexova, Y. (2019). *Iqtisodiy salohiyatni baholashda resursli va natijaviy yondashuvlar*. Moskva: Ekonomika.
15. Kurbanova, A. (2020). *Korxonalar iqtisodiy salohiyatini baholashning metodologik asoslari*. Toshkent: TDYU nashriyoti.

